

## **BUXORO ERONIYLARINING TABOBAT ILMI.**

**Kalonova Iroda Turgunovna**  
Buxoro innovatsion ta‘lim va tibbiyot  
universiteti assistenti

**Annotatsiya:** Buxoro eroniylari orasida tayyorlanish tartibi avloddan-avlodga o’tib kelayotgan dorivor ichimlik “Chor araq” azaldan xalq tomonidan qadirlanadi. Sobiq tuzim davrida 1926- yildan tabiblik faoliyati taqiqlangan [1;B-6]bo’lishiga qaramay, Buxoroda chor araqni tayyorlash to’xtab qolmadi.

**Kalit so‘zlar:** pudona, bodiyon, rano, bortang.

**Kirish:** Insonga berilgan ne’matlardan eng qimmatlisi salomatlik. Dunyo yaralibdiki, turli tuman kasalliklar, xastaliklar inson bilan yonma-yon yashaydi. Mamlakatimizda xalq tabobati uzoq tarixga ega. Ushbu bebaho ne’mat avloddan-avlodga o’tib, xalqning necha ming yillik tajribalari natijasida sayqallanib, bizgacha yetib kelgan.

**Tadqiqot metodologiyasi:** “Chor araq”- buxorolik mahalliy xalq tomonidan to‘rt xil giyohlar “pudona” yoki “xulbo‘y” deb nomlanuvchi yalpiz, bodiyon, rano (rayxon) hamda, bortang (zubturum) qo’shilmasidan aralashmasidan tayyorlanadi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili:** Xalq orasida pudona, xulbo‘y deb ataluvchi yalpiz o’simligining quritilgan bargini choyga qo’shib yoki damlab ichilsa, turli me’da-ichak buzilishlarida yordam beradi.[2]

Yalpizning shifobaxsh xususiyatlarini o’rganar ekanmiz, buxorolik eroniylarning o’simliklarning dorivor xususiyatlarini yaxshi bilganliklari va to‘g’ri maqsadda foydalana olganliklariga guvoh bo‘lamiz.

Zamonaviy tibbiyotda ham yalpiz o’simligi tarkibidagi mentol dorivor maqsadlarda keng qo’llaniladi. Neft jeli va sut shakar bilan birgalikda bu mentol umumiysovuuqqa qarshi vositadir. Diareya, qusish va revmatizm uchun mentolni og’iz orqali qabul qilish kerak.

Yalpiz va unga asoslangan preparatlar tinchlaniruvchi, antispazmodik, yallig’lanishga qarshi va xoleretik ta’sirga ega, shuningdek, ovqat hazm qilishni yaxshilaydi. Bu o’simlik turli xil jigar kasalliklari, gipertoniya, migren, meteorizm,

uyqusizlik, oshqozon va ichak kramplari uchun, ishtahani yaxshilash va yurak faoliyatini yaxshilash uchun ishlataladi.[3]

“Chor araq” ichimligini tayyorlashda ishlataladigan ikkinchi shifobaxsh o’simlik arpabodiyonning foydali xususiyatlari juda uzoq vaqtadan beri ma'lum. Soyabon oilasiga mansub bu o’simlik qadimgi rimliklar va yunonlar orasida g’alaba va muvaffaqiyat ramzi bo’lgan, shuningdek, yovuz ruhlarga qarshi kuchli himoya hisoblangan. Ovqatlanishdan tashqari, u turli kasalliklarni davolash uchun ishlataligan.

Arpabodiyon urug'inining foydali xususiyatlari tanani ko'plab kasalliklardan himoya qiladi. Ushbu mahsulot yallig'lanishga qarshi, shifobaxsh va tinchlantiruvchi ta'sirga ega, shuningdek, antioksidant hisoblanadi. Arpabodiyon kolit, meteorizmni davolashda, ishtahani oshirish uchun ishlataladi. Oshqozon-ichak trakti kasalliklari uchun ovqatdan keyin ikki-uch gramm arpabodiyon urug'ini chaynash tavsiya etiladi. Ushbu ziravordan foydalanish yurak tomirlarini kengaytirishga va xolesterin darajasini pasaytirishga ham yordam beradi.[4]

Abu Ali ibn Sino arpabodiyon mevasini nafas olish qiyinlashganda uni yengillashtirish uchun, jigar (o’t haydovchi vosita sifatida) va buyrak (peshob haydovchi vosita sifatida) kasalliklarini davolashda, hamda terlatuvchi dori vositasi sifatida qo’llagan.[5]

Arpabodiyon choyi zaharlanishda foydali, chunki u organizmdan toksinlarni olib tashlashga yordam beradi. Bu ichimlik onkologiyaning oldini olish uchun ham ishlataladi. Emizuvchi onalar laktatsiya darajasini oshirish uchun o’simlik urug'laridan foydalanadilar. Ovqatga ziravorlar qo'shish asab tizimini tinchlantirishga yordam beradi, asabiylashish va qo'rquv tuyg'ularini engillashtiradi. Shuningdek, o’simlik stomatit, faringit, buyraklar, siyidik pufagining yallig'lanishi, tartibsiz hayz ko'rish siklida foydalanish uchun tavsiya etiladi. Menopauza davrida arpabodiyon choyi bu holat bilan birga keladigan noxush alomatlarni bartaraf etishga yordam beradi. Ayol tsikli buzilgan taqdirda, arpabodiyon o'ti sharbati ishlataladi, u alohida yoki sabzi yoki lavlagi sharbatlari

bilan iste'mol qilinadi. Urug'larning infuzioni urogenital soha kasalliklari uchun ham foydalidir, chunki u yaxshi diuretik va yallig'lanishga qarshi vositadir.[6]

Rayhon so'zi ko'xna arab tilida uni "vujudi xushbo'y o'simlik", fors tilida esa "isfaran" deb atalgan bo'lib u "doimiy quvonch" manosi[7], yunonchada esa, "qirollik" degan ma'noni anglatadi. Aksariyat tarixchilar va botaniklarning fikriga ko'ra rayhonni Yunonistonga ilk bor, Erondan Makedoniyalik Aleksandr olib kelgan.[8]

Abu Ali ibn Sino rayxon ustida to'xtalib: "uni yanchib yoki moyini olib, malxam qilib bavosilga surtilsa foyda qiladi", deydi.

Ibn Sino qora rayxondan foydali foydalanilsa, ya'ni surtmasi ko'zning lo'qqillashiga foyda qilishi, yurakni kuchli qilishi, suvi qon tuflashga foyda qilishi, sutni ko'paytirishi, ichni to'xtatishi, siydik ajralishini ko'paytirishi, urug'i qiynalib siyishda foyda qilishini ko'rsatib o'tgan. Oshrayxon shifobaxshlik bobida beqiyos xosiyatlarga ega. O'simlik kishi ishtaxasiga baraka berib, ovqatni yaxshi xazm qiladi, a'zolarga singdirishda yordam beradi. Rayhon tarkibidagi efir moylari surunkali meda katarida yallig'lanishini oldini oladi. Shu bilan birga rayhon siydik yo'li kasalliklarini davolash uchun tavsiya qilinishi mumkin. Bundan tashqari rayxon yo'talga, qizamiq asorati bo'lganlarga yengillik beradi. Bolgar xalq meditsinasida rayxon asosida tayyorlangan qaynoq damlama bilan buyrak, qovuq, siydik yo'llari shamollahida, tumov, angina, bezgak xurujidan forug' etuvchi va davolovchi omil sifatida foydalaniladi.[9]

Rayxonning yana bir ajoyib xususiyatlaridan biri meva qoqilarini zararli xashorotlar ta'siridan asrashi hisoblanadi.

Rayhon-bazilning afzalliklari o'simlik tarkibiga qarab baholanishi mumkin. Uning barglarida tanin va minerallar, efir moylari, lepidin, propsin, saponin va glikozidlar mavjud. Yurak harakatini rag'batlantiruvchi lalinol, eugenol va kofur kabi uchuvchi moddalar bilan to'yingan. Bundan tashqari, Feslegen barglari A, PP, B2, C, D, K, E, rutin, oddiy shakar va o'simlik yog'lari, shuningdek yod, magniy, fosfor, temir vitaminlariga boy.

Rayhon tarkibidagi fosfor ko'p qirrali: metabolizmni yaxshilaydi, yog 'kuyadi, immun tizimini mustahkamlaydi, og'ir jarrohlik aralashuvidan keyin kuch va sog'lomlikni tiklaydi, qarishni inhibe qiladi, asablarni mustahkamlaydi va uyquni normalantiradi. Xalq tabobatida uzoq vaqt davomida jarohatni davolash, teri kasalliklarini davolash, stomatologik va bosh og'riqlar uchun foydalanilgan.[10]

Zubturum o'simligi 80 dan ortiq kasalliklarga shifo bo'ladi. Masalan, me'da -ichak kasalliklari (gastrit, enterit, enterokolit)da, ko'kyo'yatalda, bavosirda, saraton kasalligida, so'galda, ich qotishida, ko'z kasalliklarida ishlataladi.[11] bu o'simlik oshqozon-ichak traktiga foydali ta'sir ko'rsatadi, mikroblarga qarshi, antiseptik, antiviral, antispazmodik, yallig'lanishga qarshi va tinchlantiruvchi xususiyatlarga ega. Shuning uchun o'simlikning barglariga asoslangan preparatlar oshqozon va ichaklarning faoliyatini normalantiradi va yurak-qon tomir va asab tizimining kasalliklarini davolashda samarali bo'ladi.[12]

**Tahlil va natijalar:** Buxoroning Kunjiqal'a ko'chasida avvaldan buxoro eroniylari yashaydigan maskani sanalib. Bu joyda nomi el ichida tanilgan gulobchilardan 73 yoshli Lobarxon onamiz "Chor araq"ni tayyorlash usuli va tartibini qaynonalaridan o'rganganliklarini, qaynonalari esa undan ham oldin taxminan to'rt avlod oldindan davomiyligi o'tib kelayotganligini takidlاب o'tdilar. Bu shifobaxsh ichimlikga xalq orasida asosan katta yoshlilar orasida talab ko'pligini aytib o'tdilar. [13]

**Xulosa:** Yuqoridagi o'simliklarning dorivor xususiyatlarini o'rganar ekanmiz azaldan buxorolik gulobchilar avlodlari, yalpiz, bodiyon, rayxon hamda zubturum giyohlari aralashmasidan oshqozon sohasi kasalliklarini davolashda foydalanib kelganlar.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Z.F. Mavlyanova, A.A.Usmonxo'jayeva, G.L.Burxanova, M.Z.Ravshanova, M.T.Butabayev. Xalq tabobati falsafasi. Samarqand. 2021. -B.6.
2. "YALPIZNING XOSIYATI"/«O'zbekiston adabiyoti va san'ati».2013 yil 29-son.

- <https://yandex.ru/search/?text=yalpiz&clid=2270455&win=607&lr=10330#:~:text=Yalpizning%20xosiyati,haqida/xarita/qiziqarli%2D%E2%80%A6>
3. Yalpiz O'simliklar ensiklopediyasi 2024.  
<https://uz.gardenhousehold.com/11645292-peppermint>
4. <https://uz.medicinehelpful.com/17197093-the-use-of-fennel-seeds-useful-properties-composition-contraindications#:~:text=Arpabodiyonning%20foydali%20xususiyatlari,davolash%20uchun%20ishlatilgan>
5. S.X. Mavlanova, G.B. Matmuratova, & F.A. Norqulova. (2021). ЧУДЕСНЫЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ АРПАБОДИИ, КОТОРЫЕ ВЫ НЕ ЗНАЕТЕ. Журнал естественных наук, 2(1). извлечено от <https://presedu.jdpu.uz/index.php/natscience/article/view/2521>
6. <https://uz.medicinehelpful.com/17197093-the-use-of-fennel-seeds-useful-properties-composition-contraindications>
7. <https://m.ok.ru/millionner/topic/62393312108637>
8. <https://uz.healthierculinary.com/10698544-the-most-interesting-facts-about-basil>
9. <https://m.ok.ru/millionner/topic/62393312108637>
10. <https://uz.pastureone.com/20986-not-only-fragrant-but-also-useful-the-healing-proper.html>
11. Noibjonova X.M. ZUBTURUM O'SIMLIGIDAN TAYYORLANGAN AYRIM DORIVOR VOSITALAR...// «Экономика и социум» №12 (103) 2022 [www.iupr.ru](http://www.iupr.ru)
12. Мелибоева Ш.И. ZUBTURUM O'SIMLIGINI XALQ TABOBATIDA AHAMIYATI// «Научный Фокус» № 7(100), часть 1.ноября, 2023
13. Dala tadqiqoti. Kunji qal'a ko'chasi. Buxoro.